

**BO‘LAJAK MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHI-PEDAGOGLARIDA KASBIY MA‘NAVIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI**

**Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi**

Turan International University,

“Gumanitar fanlar va pedagogika” kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: khabibullayeva0811@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18973402>

**Annotatsiya:** Maqolada bo‘lajak maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarida kasbiy ma‘naviy madaniyatni rivojlantirishning konseptual asoslari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda nazariy adabiyotlarni tahlil qilish, so‘rov, intervyu, kuzatuv, case-tahlil va rol o‘yinlari metodlari qo‘llanilib, ma‘lumotlar deskriptiv va statistik usullar bilan tahlil qilindi. Mazkur tadqiqot nazariy, amaliy va ijtimoiy yondashuvlarni uyg‘unlashtirib, tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy ma‘naviy madaniyatini shakllantirishning samarali yo‘nalishlarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot natijalari pedagogning shaxsiy va professional rivojlanishi, axloqiy va emotsional barqarorligi, shuningdek, bolalarning ma‘naviy-axloqiy rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** kasbiy ma‘naviy madaniyat, tarbiyachi-pedagog, maktabgacha ta‘lim, pedagogik yondashuv, aksiologik komponent, kognitiv komponent, affektiv komponent, faoliyatli komponent, refleksiv komponent

**Аннотация:** В статье анализируются концептуальные основы развития профессиональной моральной культуры будущих воспитателей дошкольных образовательных учреждений с теоретической и практической точек зрения. В исследовании использовались методы анализа литературы, опроса, интервью, наблюдения, кейс-анализа и ролевых игр, данные обрабатывались дескриптивными и статистическими методами. Исследование объединяет теоретический, практический и социальный подходы для выявления эффективных способов формирования профессиональной моральной культуры у педагогов дошкольного образования. Результаты показывают, что моральное и профессиональное развитие воспитателей напрямую влияет на этическое и моральное становление детей, а также на эмоциональную устойчивость и профессиональную эффективность педагога.

**Ключевые слова:** профессиональная моральная культура, воспитатель, дошкольное образование, педагогический подход, аксиологический компонент, когнитивный компонент, аффективный компонент, деятельностный компонент, рефлексивный компонент

**Abstract:** The article analyzes the conceptual foundations for developing professional moral culture in future preschool educators from both theoretical and practical perspectives. The study employed methods such as literature review, survey, interview, observation, case analysis, and role-playing, with data analyzed using descriptive and statistical techniques. The research integrates theoretical, practical, and social approaches to identify effective ways to cultivate professional moral culture in preschool teachers. The results indicate that the moral and professional development of educators directly influences children’s ethical and moral growth, as well as the teacher’s emotional stability and professional effectiveness.

**Keywords:** professional moral culture, preschool educator, preschool education, pedagogical approach, axiological component, cognitive component, affective component, activity component, reflexive component

### **Kirish**

Maktabgacha yosh davri shaxsning ma‘naviy-axloqiy jihatdan shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning axloqiy tasavvurlari, ijtimoiy xulq-atvori, qadriyatlar tizimi hamda jamiyatga munosabati asoslari tarkib topadi. Ushbu jarayonda tarbiyachi-pedagog shaxsining ma‘naviy yetukligi, kasbiy mas‘uliyati va axloqiy namunaliligi bolaning shaxs sifatida rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bois tarbiyachi-pedagogning kasbiy faoliyati nafaqat ta‘lim berish, balki bolalarda ma‘naviy va axloqiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan uzluksiz pedagogik jarayon sifatida qaraladi.

Zamonaviy pedagogika nazariyasida kasbiy ma‘naviy madaniyat pedagog shaxsining integrativ sifati sifatida talqin etilib, u milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan axloqiy qarashlar, kasbiy

## **“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

kompetensiyalar, ijtimoiy mas’uliyat hamda pedagogik namunalilikning uyg‘unlashgan tizimini ifodalaydi. Pedagogning kasbiy ma’naviy madaniyati uning ta’lim-tarbiya jarayonidagi qarorlarida, bolalar bilan muloqotida, ota-onalar va jamiyat bilan hamkorligida yaqqol namoyon bo‘ladi.

So‘nggi yillarda pedagog kadrlar tayyorlash tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi, ta’lim jarayonining raqamlashtirilishi hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarning keng qo‘llanilishi bo‘ljak tarbiyachi-pedagoglardan yuksak kasbiy salohiyat bilan bir qatorda rivojlangan ma’naviy madaniyatni ham talab etmoqda. Biroq ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘ljak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy ma’naviy madaniyatni rivojlantirishning konseptual asoslari yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Shu munosabat bilan mazkur ilmiy maqolada bo‘ljak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglari kasbiy ma’naviy madaniyatni rivojlantirishning konseptual asoslarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, mazkur jarayonning pedagogik yondashuvlari, tarkibiy komponentlari hamda samarali yo‘nalishlarini asoslab berish asosiy maqsad etib belgilandi.

### **Adabiyotlar tahlili**

Mazkur masala bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagog shaxsining kasbiy yetukligi faqat kasbiy bilim va ko‘nikmalar bilan emas, balki yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar bilan ham belgilanadi.

Pedagogik adabiyotlarda kasbiy madaniyat pedagog shaxsining kasbiy faoliyatda axloqiy, estetik va ijtimoiy me‘yorlarga amal qilishi bilan izohlanadi. E.Bondarevskaya, N.Kuzmina va V.Slastyonin<sup>21</sup> tadqiqotlarida kasbiy madaniyat pedagog shaxsining qadriyatlar tizimi, kasbiy motivatsiyasi va shaxsiy fazilatlar bilan uzviy bog‘liq integrativ sifat sifatida talqin etilib, u shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning muhim natijasi sifatida e’tirof etiladi.

Kasbiy ma’naviy madaniyatning aksiologik asoslari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda ta’lim mazmunini milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslash zarurligi asoslab berilgan. Aksiologik yondashuv doirasida pedagog shaxsining kasbiy faoliyati uning axloqiy qadriyatlari va ma’naviy pozitsiyasi bilan belgilanib, vatanparvarlik, insonparvarlik va mas’uliyat kabi fazilatlarini shakllantirish ustuvor yo‘nalish sifatida qaraladi.

Falsafiy tadqiqotlarda, xususan, I.Kantning deontologik axloq nazariyasida kasbiy burch va mas’uliyat pedagog faoliyatining axloqiy mezon sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuv pedagog shaxsida kasbiy etikani shakllantirishning nazariy asosini tashkil etadi. Sotsiologik yondashuvlarda (E.Dyurkgeym, T.Parsons) kasbiy axloq normalarining jamiyat barqarorligi va ijtimoiy integratsiyani ta’minlashdagi roli ochib berilgan. Psixologik adabiyotlarda kasbiy ma’naviy madaniyat shaxsning motivatsiyasi, ichki ehtiyojlari va emotsional rivoji bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. L.Vygotskiy<sup>22</sup>, A.Maslou<sup>23</sup> va K.Rodjers<sup>24</sup> qarashlarida ijtimoiy muhit, ta’lim va shaxsning o‘zini namoyon etishi kasbiy ma’naviy rivojlanishning muhim omillari sifatida asoslanadi. Maktabgacha ta’lim sohasidagi tadqiqotlarda (A.Nishonov, T.Sharipova, G.Yodgorova va boshqalar) tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy ma’naviy madaniyatini rivojlantirishda qulay tashkiliy-pedagogik sharoitlar, ma’naviy muhit va pedagogik hamkorlikning ahamiyati alohida ta’kidlanadi. V.V.Latyushin<sup>25</sup> va hamkorlari esa pedagog shaxsining yo‘nalganlik, kompetentlik va emotsional moslashuvchanlik kabi sifatlarini kasbiy ma’naviy madaniyatning muhim tarkibiy qismlari sifatida ko‘rsatadilar.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili kasbiy ma’naviy madaniyat masalasi nazariy jihatdan yetarlicha yoritilganini ko‘rsatsa-da, bo‘ljak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglari ushbu sifatni rivojlantirishning yaxlit konseptual modeli va amaliy mexanizmlarini tizimli asoslash zarurati saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot obyekti maktabgacha ta’lim tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy ma’naviy madaniyati, predmeti esa uni rivojlantirish jarayonidir. Tadqiqotda nazariy adabiyotlarni tahlil qilish, so‘rov, intervyu, kuzatuv, case-tahlil va rol o‘yinlari kabi metodlar qo‘llanildi. Ma’lumotlar deskriptiv va statistik usullar bilan tahlil qilindi. Tadqiqot nazariy, amaliy va ijtimoiy yondashuvlarni uyg‘unlashtirib, kasbiy ma’naviy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

### **Tahlillar va natijalar**

<sup>21</sup> Bondarevskaya, E., Kuzmina, N., & Slastyonin, V. (2018). Pedagogicheskaya kul'tura prepodavatelya: teoriya i praktika razvitiya. Moscow: Prosveshchenie.

<sup>22</sup> Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.

<sup>23</sup> Maslow, A. (1943). A theory of human motivation. Psychological Review, 50(4), 370–396.

<sup>24</sup> Rogers, C. (1961). On Becoming a Person: A Therapist's View of Psychotherapy. Boston: Houghton Mifflin.

<sup>25</sup> Latyushin, V. V., & kollektiv. (2019). Pedagogicheskaya etika i kul'tura prepodavatelya. St. Petersburg: Piter.

**“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

Makabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarida kasbiy ma’naviy madaniyatni rivojlantirishning tahlili shuni ko’rsatadiki, pedagogning shaxsiy va professional rivojlanishi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning kasbiy faoliyatidagi samaradorlik va ijodkorligini belgilaydi. Tadqiqot natijalari bo‘yicha, kasbiy ma’naviy madaniyat quyidagi asosiy komponentlardan iborat ekanligi aniqlanadi:

a) **Aksiologik komponent** – pedagogning milliy va umuminsong qadriyatlar, vatanparvarlik, mehr-shafqat, insoniylik va mas’uliyat hissi bilan bog‘liq fazilatlar. Bu komponent tarbiyachi-pedagogning bolaga, ota-onaga va jamiyatga munosabatida aks etadi.

b) **Kognitiv (bilish) komponent** – pedagogning axloq, etika, pedagogik estetika, ma’naviy qoidalar va muammolarni tahlil qilish qobiliyati.<sup>26</sup> Bu bilimlar tizimi kasbiy faoliyatda pedagogning qaror qabul qilish va axloqiy me’yorlarni qo‘llash imkonini beradi.

c) **Affektiv (hissiy-emosional) komponent** – hissiyotlarni boshqarish, sabr-toqat, hamdardlik, empatiya va bolaga mehr bilan munosabatda bo‘lish qobiliyati. Bu komponent pedagogning emotsional barqarorligini va stressga chidamliligini shakllantiradi.

d) **Faoliyatli (amaliy) komponent** – axloqiy me’yorlarni amaliy faoliyatda qo‘llash, pedagogik namuna ko’rsatish va bolalarni tarbiyalash jarayonida etakchilik qilish. Bu komponent pedagogning kasbiy etikasini amalda namoyon etadi.

e) **Refleksiv komponent** – o‘zini tahlil qilish, xatolardan xulosa chiqarish va shaxsiy rivojlanishga intilish. Refleksiv faoliyat pedagogning doimiy o‘zini takomillashtirishini ta’minlaydi.

Tahlil shuni ko’rsatadiki, kasbiy ma’naviy madaniyatni rivojlantirishda **nazariy, amaliy, tashkiliy va ijtimoiy yondashuvlar** bir-birini to‘ldiradi. Nazariy yondashuvlar psixologik, sotsiologik va pedagogik nazariyalarni o‘z ichiga oladi, jumladan: deontologik axloq (Kant), funksionalizm (Dürkgeym), AGIL modeli (Parsons), psixoanaliz (Freyd), ijtimoiy rivoj nazariyasi (Vygotskiy), ehtiyojlar piramidasini (Maslou) va shaxsiy rivoj konsepsiyasini (Rodgers) qamrab oladi. Ayniqsa, pedagogning amaliy faoliyati **case-tahlillar, rol o‘yinlari, etik kodekslar, interaktiv treninglar** orqali rivojlantiriladi. Shu bilan birga, pedagogik jamoada “Ma’naviyat kunlari”, mentorship tizimi va “ma’naviy o‘shish kundaligi” orqali pedagogning refleksiv-amaliy salohiyati mustahkamlanadi.

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, kasbiy ma’naviy madaniyatni rivojlantirishda **nazariy, amaliy, tashkiliy va ijtimoiy yondashuvlar** o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, bir-birini to‘ldiradi.

➤ **Nazariy yondashuvlar** psixologik, sotsiologik va pedagogik nazariyalarni o‘z ichiga oladi. Jumladan: deontologik axloq (Kant), funksionalizm (Dürkgeym), AGIL modeli (Parsons), psixoanaliz (Freyd), ijtimoiy rivoj nazariyasi (Vygotskiy), ehtiyojlar piramidasini (Maslou) va shaxsiy rivoj konsepsiyasini (Rodgers). Bu nazariyalar pedagogning kasbiy axloqini shakllantirish va ma’naviy qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

➤ **Amaliy yondashuvlar** pedagoglarning kasbiy ma’naviy madaniyatini case-tahlillar, rol o‘yinlari, etik kodekslar va interaktiv treninglar orqali rivojlantirishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, pedagogik jamoada “Ma’naviyat kunlari”, mentorship tizimi va “ma’naviy o‘shish kundaligi” pedagogning refleksiv-amaliy salohiyatini oshirishda muhim vositalardir.

➤ **Tashkiliy yondashuvlar** maktabgacha ta’lim tashkilotlarida institutsional va me’yoriy-axloqiy tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. Bunda: ma’muriy-ta’limiy muvofiqlashtirish, ma’naviy muhit yaratish, institutsional motivatsiya tizimi, malaka oshirishda integratsiya va ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish kabi yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

➤ **Ijtimoiy yondashuvlar** pedagogni jamiyat bilan uyg‘un ishlashga yo‘naltiradi, pedagogning shaxsiy rivojlanishi va kasbiy ma’naviy madaniyatini oila, jamoatchilik, madaniyat va axborot muhitidagi o‘zaro ta’sirlar orqali shakllantiradi.

**Xulosa.** Shunday qilib, tahlillar shuni ko’rsatadiki, bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarida kasbiy ma’naviy madaniyatni rivojlantirish nafaqat ularning kasbiy faoliyatini samarali bajarish, balki innovatsion pedagogik usullarni amaliyotga joriy etish va shaxsiy malakalarni muntazam oshirish orqali amalga oshiriladi. Natijada, pedagogning kasbiy ma’naviy madaniyati bolalarning axloqiy va ma’naviy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Natijalar bo‘yicha, bo‘lajak tarbiyachi-pedagogning kasbiy ma’naviy madaniyati nafaqat uning kasbiy faoliyatida, balki pedagogik innovatsiyalarni amaliyotga joriy qilish va shaxsiy malakasini muntazam oshirishda ham sezilarli rol o‘ynaydi. Shu tariqa, pedagogning kasbiy ma’naviy madaniyati

<sup>26</sup> Kant, I. (1785). Groundwork of the Metaphysics of Morals. Riga: Hartknoch.

**“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

bolalarning axloqiy, hissiy va ma’naviy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko’rsatadi va zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimining sifatini oshirishda asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bondarevskaya, E., Kuzmina, N., & Slastyonin, V. (2018). Pedagogicheskaya kul'tura prepodavatelya: teoriya i praktika razvitiya. Moscow: Prosveshchenie.
2. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. Maslow, A. (1943). A theory of human motivation. Psychological Review, 50(4), 370–396.
4. Rogers, C. (1961). On Becoming a Person: A Therapist’s View of Psychotherapy. Boston: Houghton Mifflin.
5. Latyushin, V. V., & kollektiv. (2019). Pedagogicheskaya etika i kul'tura prepodavatelya. St. Petersburg: Piter.
6. Kant, I. (1785). Groundwork of the Metaphysics of Morals. Riga: Hartknoch.